

## OYBEK – ADABIY TANQIDCHI

*Yusupova Iqbol,**Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada atoqli o'zbek yozuvchisi, olimi va jamoat arbobi Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li)ning adabiy-tanqidiy faoliyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Unda adibning o'zbek adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqid taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, tanqidchi sifatidagi ijodiy pozitsiyasi va metodologik yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, Oybekning badiiy asarlarni baholash mezonlari, xususan, xolislik, tarixiylik va estetik mukammallik tamoyillariga tayanishi ochib beriladi. Tadqiqot davomida uning adabiy jarayon va badiiy ijod mohiyatiga doir qarashlari tahlil qilinib, ilmiy-adabiy merosining zamonaviy adabiyotshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyati baholanadi.

*Kalit so'zlar:* Oybek, adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik, estetik mezon, tarixiylik tamoyili, badiiy mahorat, tanqidchi uslubi, adabiy jarayon, ilmiy prinsiplar.

*Аннотация.* В данной статье с научной точки зрения анализируется литературно-критическая деятельность выдающегося узбекского писателя, учёного и общественного деятеля Ойбека (Мусы Ташмухаммад оглы). Освещается вклад автора в развитие узбекского литературоведения и литературной критики, раскрываются его творческая позиция как критика и методологические подходы. Особое внимание уделяется критериям оценки художественных произведений, применяемым Ойбеком, в частности принципам объективности, историзма и эстетического совершенства. В ходе исследования анализируются его взгляды на литературный процесс и сущность художественного творчества, а также оценивается теоретическое и практическое значение его научно-литературного наследия для современного литературоведения.

*Ключевые слова:* Ойбек, литературная критика, литературоведение, эстетический критерий, принцип историзма, художественное мастерство, стиль критика, литературный процесс, научные принципы.

*Abstract.* This article analyzes the literary-critical activity of the prominent Uzbek writer and scholar Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li), highlighting his role and significance in the development of Uzbek literary criticism. The study explores Oybek's distinctive style as a critic, his criteria for artistic analysis, and his principles such as objectivity, historicity, and aesthetic perfection. Furthermore, the author's most significant critical articles regarding Chulpan's works, contemporary Uzbek poetry, and Navoi studies are examined, evaluating their scientific and theoretical value for today's literary process.

*Keywords:* Oybek, literary criticism, literary studies, aesthetic criterion, principle of historicity, artistic skill, imagery, Navoi studies, literary process.

**Kirish.** O'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi va taraqqiyoti uzoq tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning nazariy asoslari hamda rivojlanish bosqichlari adabiyotshunoslik ilmida muntazam ravishda tadqiq etib kelinmoqda. Adabiy tanqid adabiyot va voqelik, ijodkor shaxsi va davr talablari, badiiy tafakkur hamda estetik mezonlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, baholash va muayyan yo'nalishga solish vazifasini bajaruvchi muhim soha sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois u badiiy jarayonning mazmun-mohiyatini anglash, adabiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash va estetik qadriyatlarni shakllantirishda muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili**

O'zbek adabiyotida adabiy tanqidning shakllanishi va taraqqiyoti o'ziga xos tarixiy bosqichlar asosida rivojlanib kelgan. Adabiy tanqidchilikning dastlabki ko'rinishlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadid adabiyoti namoyandalari faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Cho'lpon kabi ma'rifatparvar adiblarning adabiy-estetik qarashlarida tanqid badiiy asar, uning muallifi, o'quvchi va davr o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, shuningdek, milliy qadriyatlar bilan yangilanish jarayonlari o'rtasidagi uyg'unlik va ziddiyatlarni ochib beruvchi muhim vosita sifatida talqin etildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Oybekning adabiy-tanqidiy merosini o'rganishda tavsifiy-tahliliy, tarixiy-qiyosiy va biografik metodlardan foydalanildi. Adibning adabiy tanqid, adabiyotshunoslik va badiiy ijodga oid maqola hamda ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ularning o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotidagi o'rni baholandi. Shuningdek, Oybekning adabiy-estetik qarashlari boshqa o'zbek adabiyotshunoslari va tanqidchilarining ilmiy fikrlari bilan qiyosiy o'rganildi. Tadqiqot jarayonida matn tahlili, ilmiy manbalarni umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanilib, Oybekning tanqidchi sifatidagi ijodiy pozitsiyasi hamda metodologik yondashuvlari yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Jadid adabiyoti vakillari tomonidan shakllantirilgan ushbu tanqidiy tafakkur an'analari keyingi davr o'zbek adabiyotida ham davom ettirildi. Natijada adabiy tanqid va adabiyotshunoslik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan qator ijodkor va olimlar yetishib chiqdi. Ana shunday yirik siymolardan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Oybek nafaqat iste'dodli shoir va yozuvchi, balki adabiyotshunoslik hamda adabiy tanqid sohalarining rivojiga munosib hissa qo'shgan olim sifatida ham alohida e'tirof etiladi. Uning adabiy-tanqidiy qarashlari, badiiy ijod va adabiy jarayon haqidagi mulohazalari o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Oybek o'z xotiralarida bu masalalarga alohida to'xtalib o'tadi:

“Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin-o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo'yardim. Xotiramda bor, ilk she'rim texnikumning “Tong yulduzi” nomli devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o'zim mas'ul muharrir bo'ldim. Sekin-sekin respublika gazetalarida she'rlarim bosila boshladi”, [1]– deb yozadi. Shu tariqa Oybek o'zbek adabiyoti maydoniga kirib keldi va qisqa fursatda adabiy jarayonning yetakchi namoyandalardan biriga aylandi. Adib o'zining serqirra ijodiy faoliyati davomida nafaqat badiiy asarlar yaratdi, balki ilmiy-adabiy qarashlari orqali o'zbek adabiyotining kam o'rganilgan jihatlarini ham yoritib berdi. Uning chuqur tahlil va mushohadaga asoslangan ilmiy ishlari bugungi kunda ham adabiyotshunoslik taraqqiyoti uchun muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Oybekning adabiy-tanqidiy merosida adabiyotning tarbiyaviy, ma'rifiy va ijtimoiy vazifalariga alohida e'tibor qaratilgan. Uning ilmiy faoliyatining muhim qismini adabiyot tarixi, adabiy tanqid va adabiyotshunoslikka oid maqola hamda tadqiqotlar tashkil etadi.

O‘zbek xalqi tarixi va mumtoz adabiyotining yetuk bilimdoni sifatida Oybek adabiyotimizning eng qadimgi davrlaridan boshlab XX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarini qamrab oluvchi ko‘plab ilmiy maqolalar yaratgan.

Mazkur tadqiqotlarning salmoqli qismi Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, keyinchalik ular adibning “Navoiy gulshani” nomli maqolalar to‘plamiga jamlangan. Oybek Navoiy ijodiga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo‘lib, uning badiiy va falsafiy merosini chuqur o‘rgangan. U Alisher Navoiy ijodini ilmiy asosda tahlil etib, buyuk mutafakkirning nafaqat o‘zbek, balki jahon madaniyati taraqqiyotidagi o‘rnini ham asoslab berdi. Oybek talqinida Navoiy tarixiy shaxs yoki o‘tmish shoiri sifatidagina emas, balki yuksak insonparvarlik va badiiy mukammallik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Adib Navoiy asarlarini o‘rta asrlar ijtimoiy-madaniy muhiti bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etib, ularning xalqchilligi va estetik qimmatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Oybekning “Navoiy” romani ham ana shu ilmiy izlanishlarning badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Oybek adabiy qarashlarida hayotiy haqiqat va realizm tamoyillari muhim o‘rin egallaydi. U badiiy ijodda realizm va xalqchillikni asosiy mezonlardan biri sifatida baholagan. Adib 1930–1960-yillar oralig‘ida ko‘plab yosh ijodkorlarning shakllanishi va kamol topishiga ko‘maklashib, ularga badiiy mahorat sirlarini o‘rgatgan.[2] Uning estetik qarashlarida adabiy tafakkur, badiiy mukammallik va ma’naviy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Oybekning adabiy-tanqidiy merosi ellikdan ortiq maqola va taqrizlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ishlarda adib ma’rifatparvarlik g‘oyalari, milliy adabiyot taraqqiyoti va badiiy ijod masalalarini keng yoritgan. Uning ijodida tarixiy voqelikni badiiy talqin qilish tamoyili ham alohida o‘rin tutadi. Bunga 1938-yilda yaratilgan “Qutlug‘ qon” romani yorqin misol bo‘la oladi. Mazkur asar syujeti 1916-yilda Toshkentda yuz bergan xalq qo‘zg‘oloni voqealariga asoslangan. O‘sha paytda o‘n bir yoshli o‘smir bo‘lgan Oybek ushbu tarixiy hodisalarning bevosita guvohi bo‘lgani bois, romanda tasvirlangan voqealar hayotiylik va tarixiy haqiqat ruhida yoritilgan.

U davrni Zarifaxonim shunday xotirlaydi. “Biz har kuni ertalab hali u, hali bu tanishimizning qamalganini eshitamiz. Kunlar nihoyatda betinch. Hamma ziyolilar” xalq dushmani “deb e’lon qilinib kelinmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda – uyquda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo‘rg‘onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karovatni bog‘ning chetiga ko‘chirdik. (Go‘yo bizni bog‘dan topisholmaydigandek) ...Oybek...butun yoz ichi bog‘dan chiqmay ijod qildi. Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o‘ta tahlikali va fojiali kunlarda, g‘urbat yutib kechirilgan hayotda “Qutlug‘ qon” qonday go‘zal va o‘lmas asarni yaratdi”.[3]

Oybekning “Qutlug‘ qon” romani o‘zbek adabiyotining yirik tarixiy-badiiy asarlaridan biri bo‘lib, unda milliy ozodlik, vatanparvarlik, xalqning fidoyiligi va ijtimoiy adolat g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi.[4] Adib roman qahramonlari timsolida xalqning

mustaqillik yoʻlidagi kurashini, tarixiy voqealarning murakkab jarayonlarini hamda inson ruhiyatidagi jasorat, matonat va yuksak maʼnaviy fazilatlarini badiiy jihatdan yoritadi. Asarda chor mustamlakachiligi davrida oddiy xalq boshidan kechirgan zulm va adolatsizliklar tanqidiy ruhda tasvirlangan.

Oybek badiiy ijod sohasida qanday yuksak mahorat egasi boʻlgan boʻlsa, ilmiy va adabiy-tanqidiy faoliyatida ham shunchalik chuqur bilimga, yuksak did va talabchanlikka ega ijodkor sifatida namoyon boʻladi. Uning estetik qarashlari oʻzbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, yangi ilmiy-estetik tamoyillarning shakllanishiga xizmat qildi. Oybekning tanqidiy maqolalarida biror asar yoki ijodkor faoliyatini keskin qoralash emas, balki uning yutuq va kamchiliklarini xolisona baholash, ijodiy taraqqiyot yoʻllarini koʻrsatish asosiy maqsad sifatida namoyon boʻladi. U oʻzining boy ijodiy tajribasiga tayangan holda yosh ijodkorlarga badiiy mahorat sirlarini oʻrgatishga intilgan.

Oybekning adabiy va tanqidiy merosi koʻplab adabiyotshunos olimlar tomonidan oʻrganilgan. Ana shunday tadqiqotchilardan biri taniqli adabiyotshunos va tanqidchi Ozod Sharafiddinovdir. Olimning “Isteʼdod jilolari” asaridagi “Soʻz sanʼatiga fidoyi sadoqat” nomli maqolasida Oybekning ijodiy faoliyati, adabiy-estetik qarashlari va oʻzbek adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni keng tahlil qilingan. Ozod Sharafiddinov Oybekni oʻziga ustoz deb bilgan va uning badiiy hamda ilmiy merosini chuqur oʻrgangan.

Tanqidchi, Oybekning maqolalari, sheʼrlari va boshqa asarlarini atroflicha tahlil qilib, adibning oʻz davri adabiy jarayonidagi oʻrni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritib bergan. Oybek haqida fikr yuritish ekan, uni oʻz zamonasining yirik maʼrifatparvar adibi, adabiyotshunosi va adabiy tanqidchisi sifatida eʼtirof etadi: “Mening avlodim ongli hayotga revalyutsiya bilan birga hadam hoʻydi, hayotdagi bizdan katta kishilarga gʻalati tuyulgan tarahhiyot va oʻzgarishlar biz uchun normal hodisa edi. Rivojlanish tez surʼatlar bilan borar, har kuni handaydir biror yangilik baxsh etar, gazetalar va mitinglar hayotni shiorlar tiliga tarjima etardi”. [5]

Ozod Sharafiddinov Oybek lirikasini tahlil qilar ekan, undagi yuksak hayotiy pafos, chuqur maʼnaviy mazmun va teran gʻoyaviylikka alohida eʼtibor qaratadi. Olimning taʼkidlashicha, Oybek sheʼriyatida inson, Vatan va jamiyat taqdiri bilan bogʻliq masalalar yuksak badiiy mahorat asosida ifoda etilgan. Adib oʻz asarlarida oʻzbek xalqining erkin, farovon va mustaqil hayot kechirish orzusini samimiy tuygʻular bilan kuylab, ozodlik va taraqqiyot gʻoyalarini ulugʻlagan.

Oybekning badiiy hamda adabiy-tanqidiy merosini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, u har doim badiiylik va hayotiy haqiqat mezonlariga tayangan holda ijod qilgan. Adib adabiyotning ijtimoiy vazifasini yuksak baholagan boʻlsa-da, asarning gʻoyaviy mazmuni uning estetik mukammalligiga putur yetkazmasligi zarurligini qatʼiy himoya qilgan. Shu bois uning adabiy-tanqidiy qarashlarida badiiy mahorat, hayotiylik, xalqchilik va estetik mezonlar uygʻun holda namoyon boʻladi.

Oybekning serqirra ijodkorlik faoliyati, badiiy mahorati va adabiy jarayonlarni tahlil etishdagi xolis hamda ilmiy yondashuvi uni o'z davrining yetuk munaqqidlaridan biri sifatida e'tirof etilishiga asos bo'lgan. Uning adabiy-tanqidiy merosi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi. Oybek qarashlarini o'rganish yosh munaqqidlar va tadqiqotchilar uchun nafaqat ilmiy tajriba maktabi, balki yuksak badiiy did, xolis baholash mezonlari va professional mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Oybek o'zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan yirik ijodkor va olimdir. Uning adabiy-tanqidiy qarashlari badiiy asarlarni xolislik, tarixiylik, xalqchilik va estetik mukammallik mezonlari asosida baholashga qaratilgan. Oybek tanqidchi sifatida adabiy jarayonni chuqur tahlil qilib, ijodkorlarning yutuq va kamchiliklarini ilmiy asosda yoritishga intilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'rganish, milliy adabiyot tarixini tadqiq etish va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyati alohida ahamiyatga ega. Uning ilmiy-adabiy merosi bugungi kunda ham o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda va adabiy tanqidning rivojlanishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Narimov "Adabiyot" – Urganch: Toshkent nashriyoti, 2008. – B. 93.
2. Quranov D. "Adabiyot nazariyasi". –Toshkent: Toshkent nashtiyoti, 2013. – B. 12.
3. H.Narimov "Adabiyot" – Urganch: Toshkent nashriyoti, 2008. – B. 97.
4. I.Sulton "Adabiyot nazariyasi". – Toshkent, 2010. – B. 16.
5. O.Sharafiddinov "Istedod jilolari". – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. – B. 52.